



SHOIRA SHAMSNING “SAMANDAR” DEVONIDA KO‘MAKCHILARNING QO‘LLANILISHI

Madaminova Mahfuza Muzaffar qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

O‘zbek tili va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada devonda ko‘makchilar, ularning turlari va qisqargan shakllari keltirilgan baytlar tahlili haqida ma’lumot beriladi. Maqola davomida ko‘makchilarning qisqargan shakllari badiiy uslubda qanday vazifalar bajarishi va xususiyatlari hamda tilshunoslikda qisqargan shakliy ko‘rinishlarning ahamiyatki ekanligi to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Ko‘makchi, sof ko‘makchi, vazifadosh ko‘makchi, qisqargan shakli, funksional, shakliy ko‘rinish, badiiy uslub, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik.*

1. Kirish. Ko‘makchi — yordamchi so‘zlarning bir turi. Ko‘makchi atash ma’nosiga ega emas va u hech qachon mustaqil bo‘la olmaydi. So‘zni so‘zga bog‘lab so‘z birikmasi hosil qiladi. Gapda ot yoki o‘zlashgan so‘zlardan keyin kelib, vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon sintatik munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Bilan va ga almashsa u vazifadosh bog‘lovchi bo‘ladi ko‘makchi emas. Shunga ko‘ra, 2 guruhga bo‘linadi:

- 1) sof (asl) ko'makchilar;
- 2) funksional ko'makchilar (ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlar).

Sof ko'makchi mustaqil lug‘aviy ma’nolarini batamom yo‘qotgan yordamchi so‘z bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi: sayin, orqali, tufayli, yanglig‘, bilan va boshqa.

Funksional ko'makchi mustaqil ma’noli so‘zlar bo‘lib, ma’lum o‘rinlardagina ko‘makchi sifatida qo‘llanadi.

Funksional ko'makchining morfologik shakl va ma’no xususiyatiga ko‘ra turlari:

- 1) ot K. (tomon, yon, o‘rta va boshqalar);
- 2) sifat K. (boshqa, qarshi, tashqari va boshqalar);
- 3) fe’l K. (ko‘ra, qarab, buylab va boshqalar);
- 4) ravish K. (burun, avval, ilgari va boshqalar).

2. Asosiy qism. Ot, olmosh, otlashgan so‘z, sifatdosha va harakat nomidan keyin kelib, ularni keyingi so‘zga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiluvchi so‘zlar **ko‘makchilar** deyiladi.

Otdan keyin: Telefon orqali suhbatlashdim;

Olmoshdan keyin: Ular uchun tayyorlangan;

Otlashgan so‘zdan keyin: Yaxshilar tufayli go‘zaldir olam.





Sifatdoshdan keyin: Keladiganlar haqida ma'lumot to'plang;

Harakat nomidan keyin: O'qishim uchun hamma sharoit yetarli.

Ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar;
2. Vazifadosh ko'makchilar.

Atash ma'nosini butunlay yo'qotib, o'zi bog'langan so'zni boshqa so'zga faqat tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan ko'makchilar sof ko'makchilar deyiladi. Bilan, uchun, sari, sayin, singari, kabi, uzra, tufayli, qadar, haqida, yanglig', oid, doir kabi ko'makchilar shular jumlasidandir.

Masalan, oyim bilan, ta'lim uchun, kelajak sari, kun sayin, u singari, sher kabi, osmon uzra, yoshi tufayli, osmon qadar, ona haqida, oy yanglig', tarixga oid, masalaga doir...

Sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Urg'u ko'makchidan oldin kelgan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

Masalan, osmón uzra, kelaják sari...

Ko'makchilar ohang jihatidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikda talaffuz qilinadi, ammo yozuvda har doim ajratib yoziladi.

Masalan, paykal uzra, buyuklik sari...

Ammo ba'zan, bilan, uchun ko'makchilari badiiy uslubda -la, -chun, birla, ila shaklida qo'llanadi. -la, -chun shakli chiziqli bilan ajratib yoziladi.

Masalan: Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la Bezamoq onidir umr daftarin. "Boy ila xizmatchi". Yashamoq-chun kurashdim. Sen birla qolmoq istarman...

Bu kabi ko'makchilarning qisqargan shakllarini "Samandar" devoni bo'yicha ko'rib chiqsak, misol uchun:

Lutf ila olam elining bo'lg'ay ul jonparvari,

Chu shirin so'z har kishi ko'nglini qilgay tog'cha ("Samandar" devoni 17-bet).

Ahli so'zdan izlamaski g'amgusor, aylar fig'on,

Nodira birla Jahon otin ko'zini yosh etib (Devon 30-bet).

Layli ko'zing ishq birla bo'ldu el Majnunsifat,

Oh chekdi ko'ksi uzra bo'ylaki paykon tushib (Devon 31 -bet).

Yo'q erur olamda inson ko'nglidek mavhum bisot,

Onda gul birla tikonni birga barpo aylading (Devon 33-bet).

Mani ishqing bila ovvora qilding,

Ko'zim yoshini ham favvora qilding (Devon 36-bet).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bilan ko‘makchi vazifadosh ko‘makchi bo‘lib, yuqorida keltirilgan baytlarda ijodkor ko‘makchining qisqargan ila, birla, bila kabi shakllarini qo‘llagan. Bu shakllar mumtoz adabiyotda qo‘llanilib, badiiy uslubga xos ko‘rinishdir. Ko‘makchilarning bu kabi shakllari devondagi baytlarning ohangdorligi, ta’sirchanligi, ta’kidning yuqori ekanligi va emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

3. **Xulosa.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ko‘makchilar bilan qo‘llangan birliklar, ya’ni so‘z birikmasi va gaplar tarkibida kelganida, ularning ma’nosini izohlashga va qo‘shimcha ma’no yuklashga xizmat qiladi. Ko‘makchilarning qisqargan shakllari esa mumtoz adabiyotda baytlarning ohangdorligi va emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shakliy ko‘rinish sinonimik jihatdan tilimizning boy ekanligini ham yana bir bora ta’kidlovchi elementdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahmudov N. va bosh. Ona tili [7-sinf darslik]. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
2. Usmonov J., Nurmurodov O. Muxtasar grammatika. – Toshkent: Hodiyeve education, 2022.
3. Shoir Shams. “Samandar” devoni. – Urganch: “Quvonchbek-Mashhura” CHJ, 2019.
4. <https://uz.wikipedia.org>.

